
♻️ Ilg'or terimchilarni rag'batlantirish davom etmoqda

*Milliy boyligimiz bo'lgan "oq oltin"ni dalalardan yig'ib-terib olish jarayonida tumanizdagi terimchilar faol ishtirok etmoqdalar. Ayni vaqtda dalalarda ish qizg'in.

*Terimchilar bor hosilni so'nggi misqoligacha yig'ib olishga astoydil bel bog'lashgan. Terim suratini oshirishda, terimchilarga kuch-g'ayrat bag'ishlashda, ayniqsa, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilayotgani qo'l kelayotir.

*Rishton tumaniga mas'ul etib biriktirilgan viloyat hokimi o'rinbosari-Oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig'i K. Kavlonova, Rishton tuman bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva hamda mutasaddilar fermer xo'jaliklari paxta dalalarida terimchilar bilan uchrashishdi.

*Terimchilarga kuch-g'ayrat tilab, paxtani nes-nobud qilmasdan yig'ishtirib olishda jonbozlik ko'rsatayotgan fermer xo'jalik va otryad rahbarlari hamda terimchilarga tashakkur bildirildi. Eng ilg'or terimchilarga har xil turdagi sovg'alar topshirildi.

2022-09-09 15:38:33